


XI. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan
(birlikda)

Faoliyat ko'rsatayotgan
(birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)



Hududlar kesimida


Qarshi sh	6002
Qarshi	2234
Kitob	2109
Yakkabog'	2106
Koson	1987
Qamashi	1899
Shahrisabz sh	1681
Chiroqchi	1615
Shahrisabz	1595
G'uzor	1504
Nishon	1406
Kasbi	1356
Dehqonobod	1224
Ko'kdala	1191
Mirishkor	1114
Muborak	988

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025- yil 1- iyul holatiga 30 011 tani tashkil etdi, ulardan 24 837 tasi tadbirkorlik subyektlari. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,0 foiz, sanoat – 9,9 foiz, qurilish – 6,7 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Qarshi shahrida – 20,0 foiz, tumanlardan Qarshi – 7,4 foiz, Kitob – 7,0 foiz, Yakkabog' – 7,0 foiz va Kosonda – 6,6 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda



Hududlar kesimida

Qarshi sh	432
Ko'kdala	254
Qarshi	235
Yakkabog'	185
Koson	181
G'uzor	168
Kitob	158
Shahrisabz sh	150
Chiroqchi	142
Qamashi	133
Shahrisabz	129
Nishon	126
Kasbi	123
Dehqonobod	115
Mirishkor	105
Muborak	90


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2025- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2 726 tani tashkil etdi. Ularni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda savdo – 872 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 553 ta, sanoat – 320 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 272 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 189 ta, qurilish – 107 ta, tashish va saqlash – 58 ta, axborot va aloqa – 54 ta, boshqa turlar – 301 tani tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- iyul holatiga 24 837 tani tashkil etdi, ulardan 24 658 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17,9 foiz, sanoat – 12,0 foiz, qurilish – 8,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 3,1 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,6 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, boshqa turlari – 10,0 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Qarshi sh	5 103	Shahrisabz	1 272
Qarshi	1 907	G'uzor	1 227
Yakkabog'	1 754	Nishon	1 172
Kitob	1 732	Kasbi	1 122
Koson	1 614	Ko'kdala	955
Qamashi	1 580	Dehqonobod	951
Shahrisabz sh	1 440	Mirishkor	900
Chiroqchi	1 290	Muborak	818


Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2025- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 398 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 2 393 ta;
- yirik korxonalar 5 tani tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Qarshi sh	409	8,0 %
Ko'kdala	240	25,1 %
Qarshi	204	10,7 %
Yakkabog'	165	9,4 %
Koson	152	9,4 %
G'uzor	146	11,9 %
Shahrisabz sh	142	9,9 %
Chiroqchi	126	9,8 %


Kitob	119	6,9 %
Qamashi	118	7,5 %
Shahrisabz	108	8,5 %
Nishon	107	9,1 %
Kasbi	100	8,9 %
Mirishkor	94	10,4 %
Dehqonobod	91	9,6 %
Muborak	77	9,4 %

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Qarshi shahrida (20,4 foiz), Qarshi (7,7 foiz), Yakkabog' (7,1 foiz), Kitob (7,0 foiz), Koson (6,5 foiz) va Qamashi (6,4 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Qarshi sh	5 033	Shahrisabz	1 267
Qarshi	1 894	G'uzor	1 215
Yakkabog'	1 748	Nishon	1 168
Kitob	1 722	Kasbi	1 118
Koson	1 600	Ko'kdala	953
Qamashi	1 575	Dehqonobod	946
Shahrisabz sh	1 432	Mirishkor	898
Chiroqchi	1 285	Muborak	804


Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda)


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Hududlar kesimida

Qarshi sh	407	8,1 %
Ko'kdala	240	25,2 %
Qarshi	204	10,8 %
Yakkabog'	164	9,4 %
Koson	152	9,5 %
G'uzor	146	12,0 %
Shahrisabz sh	142	9,9 %
Chiroqchi	126	9,8 %


Kitob	119	6,9 %
Qamashi	117	7,4 %
Shahrisabz	108	8,5 %
Nishon	106	9,1 %
Kasbi	100	8,9 %
Mirishkor	94	10,5 %
Dehqonobod	91	9,6 %
Muborak	77	9,6 %

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyati bo'yicha ma'lumot


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida

Qamashi	595
Nishon	423
Kasbi	386
Yakkabog'	386
Mirishkor	324
Kitob	300
Shahrisabz	298
Qarshi	294
Koson	292
Ko'kdala	280
Dehqonobod	257
G'uzor	161
Muborak	155
Chiroqchi	149
Qarshi sh	146
Shahrisabz sh	44



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi. Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p qismi Qamashi (13,3 foiz), Nishon (9,4 foiz) va Kasbi (8,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.




Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumotlar

2025- yil 1- iyul holatiga koʻra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	545
Kitob	360
Yakkabogʻ	280
Shahrisabz	236
Shahrisabz sh	230
Qarshi	199
Gʻuzor	188
Koson	155
Chiroqchi	141
Qamashi	124
Kasbi	111
Koʻkdala	102
Muborak	83
Mirishkor	79
Nishon	78
Dehqonobod	65



Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega boʻlgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 9,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 88,3 foizini ishlab chiqarish sanoati, 8,4 foizini togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 2,3 foizini suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish va 1,0 foizini elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar


2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	617
Qarshi	226
Koson	178
Yakkabog'	114
Shahrisabz sh	110
Chiroqchi	105
Muborak	86
Kasbi	83
Shahrisabz	78
Qamashi	77
Kitob	77
G'uzor	60
Nishon	60
Ko'kdala	55
Dehqonobod	48
Mirishkor	44



Mamlakatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki: - binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,7 foiz ulushni tashkil etdi; - ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 21,1 foiz ulushni tashkil etdi. - fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 23,2 foiz ulushni tashkil etdi;




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	2 043
Qarshi	746
Koson	703
Chiroqchi	629
Yakkabog'	582
Kitob	581
Shahrisabz sh	565
G'uzor	560
Qamashi	498
Dehqonobod	405
Nishon	400
Shahrisabz	380
Kasbi	376
Ko'kdala	373
Muborak	329
Mirishkor	328



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 9 458 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 68,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 22,9 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,1 foiz ulushni tashkil etdi.




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	412
Kitob	167
Shahrisabz sh	151
Yakkabog'	145
Shahrisabz	137
Qarshi	94
Chiroqchi	84
G'uzor	76
Qamashi	75
Dehqonobod	58
Nishon	55
Ko'kdala	53
Koson	52
Muborak	41
Mirishkor	29
Kasbi	29




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- iyul holatiga 1 658 taga yetib, ularning 1 642 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

mehmonxonalar, turistik oromgo'klar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 7,5 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,5 foiz ulushini tashkil etdi.




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	152
Chiroqchi	44
Qarshi	36
Shahrisabz sh	24
G'uzor	23
Kitob	18
Kasbi	18
Koson	16
Yakkabog'	15
Nishon	13
Ko'kdala	10
Dehqonobod	8
Qamashi	8
Shahrisabz	6
Mirishkor	4
Muborak	3



2025-yil 1-iyul holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxonalar va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 66,3 foizini;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 30,7 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammlar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,0 foizni tashkil etdi.




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	240
Kitob	100
Yakkabog'	87
Shahrisabz sh	77
Koson	69
Qarshi	65
Shahrisabz	51
G'uzor	49
Qamashi	46
Chiroqchi	45
Nishon	37
Kasbi	35
Dehqonobod	31
Mirishkor	30
Muborak	29
Ko'kdala	18



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 651 ta yoki 64,5 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 96,5 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar sonining 1,9 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,6 foizini tashkil etdi.




Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	265
Qarshi	86
Shahrisabz sh	51
Yakkabog'	48
Koson	46
Kitob	46
G'uzor	40
Shahrisabz	37
Mirishkor	35
Kasbi	33
Dehqonobod	17
Chiroqchi	17
Qamashi	16
Muborak	13
Nishon	13
Ko'kdala	13



2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,6 foiz ulushini tashkil etdi.


Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 80,4 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 15,9 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,7 foizni tashkil etgan.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:


- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Savdo



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish




Boshqa turlar

Yetakchi o'rinni 38 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 13,7 foiz), Turkiya (ulushi 13,1 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 4,6 foiz) va Qozog'iston (ulushi 3,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Qarshi sh	36	Kasbi	7
Muborak	17	Dehqonobod	6
Koson	11	Qamashi	6
G'uzor	10	Mirishkor	6
Nishon	10	Shahrisabz	6
Kitob	9	Yakkabog'	6
Chiroqchi	9	Ko'kdala	3
Qarshi	8	Shahrisabz sh	3

Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 77 tasi qo'shma korxonalar, 76 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumot

qo'shma korxonalar		xorijiy korxonalar
6	G'uzor	4
3	Dehqonobod	3
3	Qamashi	3
4	Qarshi	4
7	Koson	4
3	Kitob	6
4	Mirishkor	2
5	Muborak	12
3	Nishon	7
1	Kasbi	6
1	Ko'kdala	2
7	Chiroqchi	2
5	Shahrisabz	1
3	Yakkabog'	3
21	Qarshi sh.	15
1	Shahrisabz sh.	2

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.